

исследований, но демонстрирует потенциал для создания комбинированных противомикробных и противоопухолевых препаратов.

6. Применение в фармацевтической и медицинской практике. Возможность формирования комплексов цефазолина с солями металлов открывает путь к созданию новых лекарственных форм с пролонгированным действием. Координация металла с антибиотиком снижает скорость высвобождения активного вещества, что особенно важно при создании инъекционных и имплантационных форм. В стоматологии такие комплексы могут использоваться для профилактики воспалительных заболеваний слизистой оболочки полости рта и пародонта. В хирургии и дерматологии перспективно их применение в виде мазей и антисептических плёнок, обеспечивающих длительное антимикробное действие. В биотехнологии подобные соединения рассматриваются как компоненты антимикробных покрытий для медицинских инструментов и материалов.

7. Перспективы исследований и заключение. Комплексные соединения цефазолина с солями металлов представляют собой важное направление развития лекарственной химии. Сочетание антибиотика с биогеенным металлом позволяет получить вещества с повышенной активностью, устойчивостью и биосовместимостью [8, с. 42].

Дальнейшие исследования должны быть направлены на:

- детальное изучение механизмов действия комплексов на микроорганизмы;
- оценку токсичности и фармакокинетики в биосистемах;
- разработку лекарственных форм пролонгированного действия;
- поиск оптимальных сочетаний антибиотика и металла для конкретных клинических задач. Таким образом, цефазолиновые комплексы с солями металлов представляют собой перспективную основу для создания новых противомикробных препаратов, способных эффективно противостоять антибиотикорезистентным микроорганизмам и расширить терапевтический потенциал цефалоспоринов.

Список литературы

1. Singh, P., & Kaur, G. (2021). *Metal complexes of β -lactam antibiotics: synthesis, characterization and biological studies*. Journal of Coordination Chemistry, 74(5), 799–814.
2. Al-Khodir, F. A., & Refat, M. S. (2019). *Synthesis and characterization of metal complexes of cefazolin: Structural, spectral and biological studies*. Arabian Journal of Chemistry, 12(4), 517–526.
3. Georgievna, Y. S. (2023). BASICS OF TITRIMETRIC METHODS OF ANALYSIS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 20, 61-63.
5. Yusufova, S. (2023).
4. Georgievna, Y. S. (2023). DEVELOPMENT OF IDEAS ABOUT COLLOIDAL DISPERSE SYSTEMS AND THEIR BASIC PROPERTIES. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 1(3), 73-77.
5. Sharipova, L.A., Azizov, T.A., Ibragimova, M.R., & Mamatova, F.K. (2023). Complex compound of zinc nitrate based on formamide and nicotinic acid. Universum: chemistry and biology. 4(106), 65-68. <http://7uneversum.com/ru/nature/archive/item/15187>
6. Sharipova, L.A., Azizov, T.A., Ibragimova, M.R., & Kholmatov, D.S. (2019). New coordination compounds of zinc nitrate with nitrocarbamide, benzamide and benzoic acid. NamSU scientific bulletin, 3, 42-48. <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/7>.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH TIZIMI TARIXI (1991-2021-YILLAR)

Mambetnazarova Altynshash Abatovna

Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti “O‘zbek tili, tillari va ijtimoiy fanlar”

kafedrası assistenti

aaltynsas32@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada 1991-2021 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etish va boshqarish tarixi tahlil qilingan. Tizimning asosiy rivojlanish bosqichlari, jumladan, milliy boshqaruvni shakllantirish, tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish, profilaktika dasturlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish tahlil qilindi. Xalqaro hamkorlik va malakali tibbiyot

kadrlarini tayyorlashdagi roliga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot natijalari sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish va tibbiy xizmat sifati darajasini oshirish uchun foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston, sog'liqni saqlash, boshqaruv tizimi, modernizatsiya, profilaktika dasturlari, raqamli texnologiyalar, tibbiyot kadrlari, xalqaro hamkorlik.

ИСТОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗДРАВООХРАНИЕНИЕМ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН (1991–2021 ГОДЫ)

Мамбетназарова Алтыншаш Абатовна

Ассистент кафедры «Узбекский язык, языки и социальные науки», Каракалпакский
медицинский институт
aaltynsas32@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается история организации и управления системой здравоохранения в Республике Каракалпакстан в период с 1991 по 2021 годы. Проанализированы ключевые этапы развития системы, включая формирование национального управления, модернизацию медицинских учреждений, внедрение профилактических программ и цифровых технологий. Особое внимание уделено роли международного сотрудничества и повышению квалификации медицинских кадров. Результаты исследования могут быть использованы для дальнейшего совершенствования системы здравоохранения и повышения качества медицинских услуг в регионе.

Ключевые слова: Каракалпакстан, здравоохранение, система управления, модернизация, профилактические программы, цифровизация, медицинские кадры, международное сотрудничество

HISTORY OF THE ORGANIZATION AND MANAGEMENT SYSTEM OF HEALTHCARE IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN (1991–2021)

Mambetnazarova Altynshash Abatovna

Assistant, Department of "Uzbek Language, Languages, and Social Sciences," Karakalpakstan
Medical Institute
aaltynsas32@gmail.com

Annotation: The article examines the history of organizing and managing the healthcare system in the Republic of Karakalpakstan from 1991 to 2021. Key stages of system development are analyzed, including the formation of national management, modernization of medical institutions, implementation of preventive programs, and digital technologies. Special attention is given to international cooperation and the training of qualified medical personnel. The results of the study can be used to further improve the healthcare system and enhance the quality of medical services in the region.

Keywords: Karakalpakstan, healthcare, management system, modernization, preventive programs, digitalization, medical personnel, international cooperation.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan mamlakat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Shu jumladan, sog'liqni saqlash tizimi ham yangicha mazmun kasb eta boshladi [1, 12-бет]. Sobiq ittifoq davrida mavjud bo'lgan markazlashgan tibbiyot tizimi yangi davr talablari asosida qayta tashkil etilib, inson salomatligini asrash, profilaktik xizmatni kuchaytirish, tibbiy xizmat sifati va qulayligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.[2, 8–9-бетлар]

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning tarkibiy qismi sifatida ushbu islohotlarning ajralmas bo'lagi bo'lib, sog'liqni saqlash sohasida ham o'ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi. 1991–2021 yillar mobaynida bu hududda tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish sifatini oshirish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi. [5, 22–24-бетлар]

Mamlakat miqyosida amalga oshirilgan "Sog'lom avlod uchun", "Sog'lom ona – sog'lom bola", "Har bir oila – farovon hayot" kabi dasturlar Qoraqalpog'iston Respublikasida ham faol tatbiq etilib, sog'lom naslni shakllantirish, bolalar va ayollar salomatligini muhofaza qilish borasida muhim natijalarga erishildi. Shu bilan birga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, zamonaviy

diagnostika va davolash uskunolari bilan jihozlash ishlari yo'lga qo'yildi, qishloq joylarda oilaviy poliklinikalar tarmog'i kengaydi. [6, 19-6, 8,70-6]

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologik jihatdan noqulay hudud hisoblanadi. Xususan, Aral dengizining qurib borishi, havoning ifloslanishi, ichimlik suvining tanqisligi kabi omillar aholining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu sababli, 1991–2021 yillar mobaynida bu hududda sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish tizimi doimiy ravishda takomillashib, o'ziga xos yo'lni bosib o'tdi. [6, 25-6, 9 33-35 6]

Tadqiqotning maqsadi – Qoraqalpog'iston Respublikasida 1991–2021 yillar davomida sog'liqni saqlash sohasini tashkil etish va boshqarish tizimining shakllanish bosqichlarini tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilish, islohotlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. [7, 10-6]

Tadqiqotning ob'ekti – Qoraqalpog'iston Respublikasining sog'liqni saqlash tizimi, predmeti esa – mazkur tizimning boshqaruv shakllari, islohotlar jarayoni va ularning samaradorligi hisoblanadi. Ishning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik, tahlil va qiyoslash usullari tashkil etadi [10, 18-6].

Mazkur mavzuni o'rganish ilmiy jihatdan muhimdir, chunki u nafaqat o'tgan 30 yillik davrda erishilgan yutuqlarni tahlil qilish, balki kelgusida sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish uchun zarur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi [4, 42-6]. Shu boisdan, ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimining mustaqillikdan keyingi shakllanish jarayoni, boshqaruv tizimining rivojlanish bosqichlari hamda 1991–2021 yillar oralig'ida amalga oshirilgan asosiy islohotlar tarixiy manbalar va amaliy natijalar asosida yoritiladi [6, 29–30-6].

1991–2000 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish va boshqarish. Mustaqillikning ilk yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimi asosan sobiq ittifoq davridan meros bo'lgan markazlashgan boshqaruv shaklida davom etdi. Shu davrda respublika hududida tibbiy xizmat sifatini saqlab qolish va aholiga zarur yordam ko'rsatish muhim masala bo'lgan. [1, 156]

1991–1995 yillarda asosiy e'tibor sog'liqni saqlash muassasalarini moddiy-texnik bazasini saqlash, mavjud kadrlarni ushlab qolish va ularni malaka oshirishga qaratildi [6, 18–196]. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hududiy bo'linmalari orqali tibbiy xizmatni joylarda tashkil etish ishlari boshlanib, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari faoliyati kuchaytirildi. [6, 216]

1996–2000 yillarda esa tibbiyot boshqaruvi milliy shaklga o'tkazish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash to'g'risida"gi qonun (1996) asosida respublika tibbiyot tizimi organlari mustaqil faoliyat yurita boshladi [2, 30–316]. Bu hujjat tibbiy xizmat ko'rsatishning barcha bosqichlarini, shuningdek, sog'lomlashtirish va profilaktika tadbirlarini milliy qonunlar bilan muvofiqlashtirish imkonini berdi. [2, 32–336]

Shu davrda qishloq joylarda tibbiy xizmatni kuchaytirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqildi. Masalan, "Har bir qishloqda vrachlik punkti" loyihasi amalga oshirilib, oilaviy vrachlar soni oshirildi, malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi [6, 25–26-бетлар]. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va UNICEF bilan hamkorlikda onalar va bolalar salomatligini yaxshilashga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi. [10, 40–41-бетлар]

Bundan tashqari, ushbu davrda sog'liqni saqlash tizimida moliyaviy va tashkiliy islohotlar ham boshlangan. Respublika byudjeti orqali sog'liqni saqlashga ajratilgan mablag'lar monitoring qilindi, tibbiyot muassasalarining o'zini o'zi moliyalashtirish mexanizmlari tajriba tariqasida joriy qilindi. [7, 28–29-бетлар]

Umuman olganda, 1991–2000 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimi asosan:

- Mavjud muassasalarni saqlash va barqarorlashtirish,
- Milliy boshqaruv tizimini shakllantirish,
- Birlamchi tibbiy xizmatni kengaytirish,
- Xalqaro hamkorlik orqali sog'lomlashtirish dasturlarini tatbiq etish,
- Yo'nalishlarida rivojlandi va bu jarayon keyingi yillardagi modernizatsiya uchun mustahkam poydevor yaratdi [6, 34–36-бетлар].

2000–2010-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini boshqarish va islohotlar. 2000-yillarning boshlarida Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimining asosiy yo'nalishlari yanada rivojlantirildi. Ushbu davrda davlat siyosatida tibbiyot sohasini modernizatsiya qilish, xalqning salomatligini oshirish va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash

ustuvor vazifa sifatida belgilandi [3, 45–46-бетлар]. Bu davrda birlamchi tibbiy xizmatni takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi. Respublika bo'yicha oilaviy poliklinikalar tarmog'i kengaytirildi, qishloq vrachlik punktlarining malaka darajasi oshirildi va yangi tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimi joriy qilindi [6, 37–39-бетлар]. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi boshqaruv tizimi yanada markazlashtirilgan va raqamli texnologiyalar bilan jihozlandi. Tibbiyot muassasalari faoliyatini monitoring qilish, statistika ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish tizimi yo'lga qo'yildi [5, 50–52-бетлар].

2005–2010 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan bir qator strategik dasturlar ishlab chiqildi. Masalan, "Sog'lom ona va bola", "Kasalliklarning oldini olish" kabi dasturlar amalga oshirildi, aholining immunizatsiya qamrovi oshirildi va profilaktik tadbirlar kuchaytirildi [8, 72–74-бетлар]. Shu davrda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada faollashdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va UNICEF bilan birgalikda bolalar va onalar salomatligini yaxshilashga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi, sog'lomlashtirish dasturlari tatbiq etildi. [10, 42–44-бетлар] Moliyaviy jihatdan ham islohotlar davom etdi. Respublika byudjeti orqali sog'liqni saqlashga ajratiladigan mablag'lar samarali monitoring qilindi, tibbiyot muassasalari uchun moliyaviy hisobot tizimi joriy qilindi, davlat va nodavlat sektorlar o'rtasida moliyaviy hamkorlik yo'lga qo'yildi. [7, 48–49-бетлар]

Umuman olganda, 2000-2010-yillar Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimi uchun modernizatsiya bosqichi bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda rivojlandi:

- Birlamchi tibbiy xizmatni kuchaytirish va malakali kadrlarni tayyorlash,
- Tibbiyot muassasalari faoliyatini raqamlashtirish va monitoring tizimini joriy qilish,
- Strategik sog'lomlashtirish dasturlarini amalga oshirish,
- Xalqaro hamkorlik orqali sog'lomlashtirish loyihalarini tatbiq etish,
- Moliyaviy va boshqaruv tizimini takomillashtirish [5, 53–55-бетлар].

2010–2021-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish. 2010–2021 yillar Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish bosqichi sifatida ajralib turadi. Ushbu davrda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifati oshirildi, tibbiyot muassasalari infratuzilmasi yaxshilandi va innovatsion texnologiyalar joriy etildi [6, 60–62-бетлар]. Shu davrda elektron sog'liqni saqlash tizimi (e-health) ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Tibbiyot muassasalarida bemorlarni ro'yxatdan o'tkazish, diagnostika ma'lumotlarini saqlash va statistik hisobotlarni avtomatlashtirish imkoniyati yaratildi [5, 63–65-бетлар].

2010–2015 yillarda respublikada oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining soni oshirildi, yangi zamonaviy laboratoriyalar va diagnostika markazlari ishga tushirildi. [6, 66–67-бетлар] Shu bilan birga, malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimi mustahkamlandi [7, 68–69-бетлар].

2016–2021 yillarda esa aholining profilaktik tibbiy ko'riklaridan o'tish darajasi oshirildi, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik davom ettirilib, turli sog'lomlashtirish dasturlari amalga oshirildi. [10, 75–76-бетлар] Shuningdek, moliyaviy boshqaruv tizimi yanada takomillashdi. Davlat va nodavlat moliyalashtirish mexanizmlari rivojlantirildi, tibbiyot muassasalarining o'zini o'zi moliyalashtirish imkoniyatlari kengaytirildi [7, 71–72-бетлар].

Natijada, 2010–2021 yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimi quyidagi yo'nalishlarda rivojlandi:

- -Tibbiyot muassasalarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish,
- -Birlamchi va ikkilamchi tibbiy xizmat sifatini oshirish,
- -Profilaktika va sog'lomlashtirish dasturlarini kengaytirish,
- -Malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish,
- -Moliyaviy va boshqaruv tizimini samarali qilish [6, 77–78-бетлар].

Natijalar va tahlil. 2010–2021 yillar mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlari o'zining ijobiy natijalarini berdi. Tibbiy xizmatlarning sifati oshdi, ularning aholiga yaqinlashuvi kuchaydi. Raqamli texnologiyalar tibbiyot ma'lumotlarini yuritishda shaffoflikni ta'minladi va bemorlar uchun qulaylik yaratdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilga kelib, Qoraqalpog'iston Respublikasida chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichi 1991-yilga nisbatan 2,5 baravar kamaygan, o'rtacha umr davomiyligi esa 73 yoshni tashkil etgan. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining malakasi sezilarli darajada oshdi, aholi orasida sog'lom turmush tarzi tamoyillari keng yoyildi.

Umuman olganda, 2010–2021 yillar Qoraqalpog‘iston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgan davri bo‘lib, boshqaruvning raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Ushbu davrda amalga oshirilgan islohotlar hozirgi kunda ham sog‘liqni saqlash sohasining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Xulosa. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1991–2021 yillar davomida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etish va boshqarish tarixi o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. **1991–2000 yillarda** tizim asosan sobiq ittifoq davridan meros qolgan markazlashgan boshqaruv shaklida saqlab qolinib, birlamchi tibbiy xizmatni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan [1, 15–19-бетлар; 6, 34–36-бетлар].

2. **2000–2010 yillarda** tibbiyot tizimi modernizatsiya qilinib, strategik dasturlar, xalqaro hamkorlik va raqamlashtirish yo‘lga qo‘yilgan, moliyaviy va boshqaruv tizimi takomillashtirilgan [3, 45–46-бетлар; 5, 50–52-бетлар].

3. **2010–2021 yillarda** tizim raqamlashtirilgan, diagnostika va laboratoriya infratuzilmasi kengaytirilgan, profilaktik va sog‘lomlashtirish dasturlari samarali amalga oshirilgan, malakali kadrlarni tayyorlash tizimi mustahkamlangan [6, 60–62-бетлар; 10, 75–76-бетлар].

Umuman olganda, mustaqillikdan keyingi 30 yil ichida Qoraqalpog‘iston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimi:

- Markazlashgan boshqaruvdan milliy boshqaruv shakliga o‘tdi,
- Birlamchi tibbiy xizmat va profilaktik dasturlar rivojlantirildi,
- Raqamli va moliyaviy boshqaruv tizimi joriy qilindi,
- Xalqaro hamkorlik orqali sog‘lomlashtirish dasturlari amalga oshirildi.

Bu natijalar kelajakda sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish va aholi salomatligini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [6, 77–78-бетлар].

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedov A. *O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimi tarixi*. Toshkent: Fan, 2010. 76-bet.
2. Karimov B. *Sog‘liqni saqlash sohasidagi qonunlar va tartibotlar*. Toshkent: Yangi asr, 2012. 30–33-бетлар.
3. Tursunov D. *Tibbiyot tizimini modernizatsiya qilish yo‘llari*. Nukus: Qoraqalpog‘iston, 2015. 45–46-бетлар.
4. Yusupova N. *Sog‘liqni saqlash tizimining ijtimoiy ahamiyati*. Toshkent: Ilm, 2011. 42-b.
5. Sobirov M. *Raqamli tibbiyot va boshqaruv*. Toshkent: Texnologiya, 2018. 50–52-бетлар; 63–65-бетлар; 53–55-бетлар.
6. Islomov R. *Qoraqalpog‘iston sog‘liqni saqlash tizimi tarixi*. Nukus: Fan, 2019. 15–19, 21, 34–36, 37–39, 60–62, 66–67, 77–78-бетлар.
7. Mirzaev S. *Moliyaviy boshqaruv va tibbiyot muassasalari*. Toshkent: Moliyaviy ilm, 2016. 28–29, 48–49, 68–69, 71–72-бетлар.
8. Yakubova F. *Profilaktik dasturlar va sog‘lomlashtirish loyihalari*. Nukus: Qoraqalpog‘iston, 2014. 70, 72–74-бетлар.
9. Qosimov H. *Ekologik omillar va aholining salomatligi*. Toshkent: Fan, 2013. 33–35-6.
10. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va UNICEF hisobotlari. 2010–2020. 40–41, 42–44, 75–76-бетлар.

UYQUDA VA HUSHYORLIKDA YUZ BERADIGAN INSULTLAR: KLINIK, PATOGENETIK VA STATISTIK TAHLIL

^{1,2}Sobirov Javlon Inomjanovich

¹ Jizzax shahridagi QFU fililali assistenti

² RSHTYOM Jizzax filiali nevrologi

<https://sobirovuz2277gmail.com>

Nurullaeva Nozila

Jizzax shahridagi QFU fililali Davolash ishi yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uyquda kechadigan insultlarning patogenezi, klinik farqlari, diagnostika usullari, davolash yondashuvlari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada ushbu kasallik yuzasidan 2022-2024-yillar davomida kuzatilgan bemorlar statistikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqiladi.